**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
N.Abdullayev

"26" 12 2024-yil

60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (sharq tillari (fors)) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun mutaxassislik fanlaridan

**Bilim sohasi:** 200000-San'at va gumanitar fanlar
**Ta'lim sohasi:** 230000- Tillar
**Ta'lim yo'nalishi:** 60230300- Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (sharq tillari bo'yicha)

# YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI DASTURI

**Toshkent- 2024**



CamScanner yordamida skanerlangan

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi NIZOMga asosan ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Sodiqov Q.P. – Turkshunoslik oliy maktabi professori, f.f.d.
To'xliyev B. – turkshunoslik oliy maktabi professori, f.f.d.
Eshmuhamedova M. – Turkshunoslik oliy maktabi dotsenti, f.f.n.
Rahmatullayev N. – Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

Alimuxamedov R.A. – Turkshunoslik oliy maktabi professori, f.f.d.
Madaliyeva O.R. – O'zR FASHI katta ilmiy xodimi, PhD.

Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2024-yil 26-dekabr 5-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.



CamScanner yordamida skanerlangan

# KIRISH

Mazkur 60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (sharq tillari) yo'nalishi bitiruvchilarining to'rt yil mobaynida ixtisoslik fanlarini o'qib o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o'tkaziladigan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha ishlab chiqilgan.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi quyidagi tur topshiriqlarni o'z ichiga oladi:

I. Mutaxassislik fanlaridan sinov (nazariy) – 25 ball;
II. Mutaxassislik fanlaridan sinov (amaliy) – 25 ball;
III. Sharq tilidan ona tiliga tarjima – 25 ball;
IV. Ona tilidan sharq tiliga tarjima – 25 ball.

100 ballik baholash mezonlari dastur nihoyasida keltiriladi.

## I. MUTAXASSISLIK FANLARIDAN SINOV (NAZARIY)

Mutaxassislik fanklaridan attestatsiya yozma sinovlari "O'zbek adabiyoti tarixi", "Turkiy yozma yodgorliklar tili" fanlaridan savollarni qamrab olgan. Ushbu qism bo'yicha quyidagi savollar tavsiya qilinadi:

1. "Shajarai turk" tarixiy-badiiy asar sifatida.
2. "Xamsa" va xamsachilik an'analari haqida.
3. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining ilmiy-filologik ahamiyati.
4. Ogahiy – tarjimon.
5. O'zbek tili tarixini davrlashtirish masalasi.
6. Qadimgi yozma yodgorliklar tilida kelishik kategoriyasi.
7. Qadimgi turkiy tilda ko'plik va uning ifodalanishi.
8. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asari tilshunoslikning muxim yodgorligi sifatida.
9. Ogahiy ijodi.
10. Ogahiy she'riyati.
11. Qadimgi yozma yodgorliklar tilida son turkumi va uning ifodalanishi.
12. Qadimgi yozma yodgorliklar tilida o'tgan zamon va uning ifodalanishi.
13. Qadimgi turkiy tilda otlarning yasalishi masalasi.
14. Uvaysiy lirikasi.
15. Alisher Navoiy – ruboiy ustasi.
16. Alisher Navoiyning ilmiy merosi.
17. Alisher Navoiyning "Muhokmatu-l-lug'otayn" asari: Navoiyning o'zbek tilshunosligi tarixidagi xizmatlari.
18. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asari tilshunoslikning muxim yodgorligi sifatida.
19. Qadimgi turkiy tilda bog'lovchilar.



CamScanner yordamida skanerlangan

## II. MUTAXASSISLIK FANLARIDAN SINOV (AMALIY)

1. Turkiy tillar tarixi, o'zbek adabiy tili tarixini o'rganish sohasida turkshunoslik va tilshunoslik oldida turgan vazifalarini yechish yo'l-yo'riqlarini aytib bering.

2. XVII–XIX asrlarda ijod etgan adiblar va adabiyot ahllari, ularning adabiy til tarixi takomiliga qo'shgan ulushini misollar orqali dalillang.

3. "Chig'atoy turkiysi"da bitilgan rasmiy yorliqlar va diplomatik hujjatlar hamda ularning uslubini misollar bilan yoriting.

4. Navoiyning "Muhokamatu-l-lug'atayn" asarida qaysi til sathlari haqida gapirilgan, misollar bilan dalillang.

5. O'zbek tili tarixida undoshlar tizimida yuz bergan o'zgarishlar nima sababdan bo'lganini yoriting.

6. Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddamatu-l-adab" asariga kiritilgan turkiy so'zlik va asarning til tarixida tutgan o'rni nimalardan iborat ekanini misollar bilan sharhlang.

7. Jadid adabiyotining tarix sahnasidagi faoliyatini misollar orqali yoriting.

8. So'fi ollayor yashagan davrda adabiy muhit va u davrda uning asarlarining tutgan o'rni haqida fikrlar keltiring.

9. Mutrubiyning tazkiralarining boshqa tazkiralardan qaysi jihatlari bilan farq qilishini dalillang.

10. Abulg'oziy Bahodurxon yashagan davr adabiy muhiti va unda shoir asarlarining tutgan o'rni nimalardan iborat ekanini misollar bilan yoriting.

11. Husayn Boyqaroning ham shoh, ham, shoir sifatidagi faoliyati qanday kechgan?

12. Bitiglarning tuzilishi, ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini misollar bilan dalillang.

13. Nodira ijodida hijron mavzusi qanday yoritilgan.

14. "Xamsa" va xamsachilik an'analari haqida misollar bilan gapirib bering.

15. Xalq og'zaki ijodida Alisher Navoiy siymosining aks etishi.

16. "Farhod va Shirin"ning obrazlar tizimi haqida gapiring.

17. "Layli va Majnun"da majoziy a ilohiy ishq talqini qanday berilgan?

18. Ilmiy va adabiy uslublar sinkretizmi masalasini misollar bilan yoriting.

19. Epistolyar janr masalasini misollar bilan yoriting.

20. Diniy-falsafiy asarlar va ularning uslubi haqida o'z fikrlaringizni yoriting.



CamScanner yordamida skanerlangan

## II. SHARQ TILIDAN ONA TILIGA TARJIMA (800-1000 b.b.)

(*Fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinadigan matn namunasi*)

### رودکی

رودکی نخستین شاعر بزرگ، استاد قصیده و پایه گذار ادبیات فارسی است. وی پدر شعر فارسی و استاد شاعران به شمار می رود. ابوعبدالله جعفر بن محمد بن حکیم بن عبدالرحمن بن آدم متخلص به رودکی و مشهور به استاد شاعران نخستین شاعر مشهور پارسی‌سرای ایرانی در دوره سامانی در سدهٔ چهارم هجری قمری و استاد شاعران این قرن در ایران است. در اشعار رودکی با باور به ناپایداری و بی‌وفایی جهان، اندیشه غنیمت شمردن فرصت، شادی روبرو می‌شویم. او در روستایی به‌نام بنج رودک در ناحیه رودک در نزدیکی سمرقند به دنیا آمد. رودکی را نخستین شاعر بزرگ پارسی‌گوی و پدر شعرپارسی می‌دانند به این دلیل که تا پیش از وی کسی دیوان شعر نداشته است. از تمام آثار رودکی که گفته می‌شود بیش از یک میلیون و سیصد هزار بیت و نیز شش مثنوی بوده، فقط ابیاتی پراکنده به همراه چند قصیده، غزل و رباعی باقی مانده‌است. تعداد ابیات باقی‌مانده از رودکی را ۱۰۴۷ بیت گزارش می‌کنند. رودکی در دربار امیر نصر سامانی بسیار محبوب شد و ثروت بسیاری به دست آورد. می‌گویند رودکی حدود یک صدهزار بیت شعر سروده‌است. او در اواخر عمر به زادگاهش بنج رودک بازگشت و در همان‌جا به سال ۳۲۹ هجری در گذشت. رودکی فرزندی به نام عبدالله داشته‌است که در بیشتر تذکره‌ها پیش از نام خودش می‌آمده و از این رو به ابوعبدالله معروف شده بود. او آثار بسیاری را خلق نمود که متأسفانه جز پاره‌ای از آن‌ها بدستمان نرسیده‌است.

## III. ONA TILIDAN SHARQ TILIGA TARJIMA (800-1000 b.b.)

(*O'zbek tilidan sharq tiliga tarjima qilinadigan matn namunasi*)

### OGAHIY

Yorqin iste'dodlarga boy mumtoz adabiyotimiz, madaniyatimiz tarixida Ogahiyning o'rni o'ta salmoqlidir. U talantli lirik shoir, iste'dodli tarjimon, zabardast tarixchi sifatida juda boy meros qoldirgan. Shu sababli Ogahiy zamondoshlaridan Muhammadrahim Feruz, Ahmad Tabibiy, Muhammadyusuf Bayoniy, Komil Xorazmiy kabi davrining taniqli ilm-madaniyat arboblari, shoirlari uning ta'rifida ajoyib fikrlar bayon etganlar. Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy 1809 yili Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob (obdor) oilasida dunyoga keladi. Ogahiy miroblar sulolasining vakillaridan biridir. Biroq u bu xizmatda ishlagan bo'lsa-da molu mulk to'plashga intilmagan, xokisor, kamtarona yashash yo'lini tanlagan. 1829 yildan 1857 yilgacha miroblik mansabida bo'lgan Ogahiy otdan yiqilib, qattiq shikastlanadi va iste'foga chiqishga majbur bo'ladi. Umrining oxirigacha (1874) butunlay ijodiy ish bilan mashg'ul bo'ladi. Uning "Ta'viz ul-oshiqin" devonidan boshlab hamma asarlari saroydan, mansabdan forig' bo'lgan yillardagi ijodi mevalaridir. Ogahiy o'zbek shoirlari ichida eng ko'p musammatlar yaratgan shoirlardan biridir. "Ta'viz ul-oshiqin"da 450 baytdan iborat to'rtta mustaqil masnaviy bor. Ogahiyning bir qancha barkamol ruboiylari,

donishmandona qit'alari, ishqiy, axloqiy-ma'rifiy to'rtliklari, qasidalari, chistonlari bor.



CamScanner yordamida skanerlangan

**Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining mutaxassislik fanlaridan yozma ishlar topshiriqlari bo'yicha talabalar bilimini baholash mezonlari**

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini baholash uchun maksimal baho - **100 ball** etib belgilanadi.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi biletlarining har birida 4 tadan savol bo'lib, ular quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Birinchi va ikkinchi savollar mutaxassislik fanlariga tegishli bo'ladi. Ularning har biriga yozilgan javoblarni baholash **25 ball** doirasida amalga oshiriladi.

Savol bo'yicha javoblarni baholash quyidagi jihatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- nazariy va amaliy bog'liqlikda yoritilgan;
- mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada yuritish iqtidori mavjudligi;
- nom va ilmiy atamalarni bilish darajasi;
- keltirilgan faktlarning hozirgi davrdagi jarayonlar, o'zgarishlar bilan o'zaro aloqadorlikda ochib berilganligi, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to'g'ri yoritilganligi;
- muammoni tizimli mustaqil tahlil qilganligi, o'z fikrini erkin va mustaqil ifoda eta olganligi.

**BAHOLASH MEZONLARI:**

1. Fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to'liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan va har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga **22.5-25 ballgacha** - ***a'lo*** baho qo'yiladi.

2. Savolga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa, **17.5-22.4 ballgacha** - ***yaxshi*** baho qo'yiladi.

3. Savolga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo'lsa, **15-17.4 ballgacha** - ***qoniqarli*** baho qo'yiladi.

4. Fikr aniq ifoda etilmagan, savolga qisman bo'lsada to'g'ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun **0-14.9 ballgacha** - ***qoniqarsiz*** baho qo'yiladi.

1. Uchinchi savol bo'yicha mutaxassislikka oid (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, badiiy) mavzulardagi va 800-1000 belgi atrofidagi hajmga ega sharq tilidagi matnni ona tiliga tarjima qilinadi.
2. To'rtinchi savol bo'yicha mutaxassislikka oid (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, badiiy) mavzulardagi va 800 - 1000 belgi atrofidagi hajmga ega ona tilidagi matnni sharq tiliga tarjima qilinadi.



CamScanner yordamida skanerlangan

Yozma tarjimani baholashda **25 ballik mezon qo'llanadi**. Matn tarjimasi quyidagi mezon asosida baholanadi:

| | |
|---|---|
| a) matnni to'liq 100% tarjima qilsa | **25 ball** |
| b) 90 % tarjima qilsa | **22.5 ball** |
| v) 80% tarjima qilsa | **20 ball** |
| g) 70% tarjima qilsa | **17.5 ball** |
| d) 60% tarjima qilsa | **15 ball** |
| e) 50% tarjima qilsa | **12.5 ball** |
| j) 50% dan kam tarjima qilsa | **0 ball** |

Tarjima hajmidan kelib chiqib, baholashda oraliq ballar korsatkichlari ham qollanishi mumkin.

Yozma ish natijalari bo'yicha sinov yakunida yig'ilgan ballar jamlanadi va quyidagicha baholanadi:

1. 90 - 100 ballgacha – "a'lo";
2. 71 - 89 ballgacha – "yaxshi";
3. 60 – 70 ballgacha – "qoniqarli";
4. 0 – 59 ballgacha – "qoniqarsiz"



CamScanner yordamida skanerlangan

**100 ballik va 5 ballik baholash tizimlarining o‘zaro mosligi jadvali**

| 5 baholik shkala | 100 ballik shkala | 5 baholik shkala | 100 ballik shkala | 5 baholik shkala | 100 ballik shkala |
|---|---|---|---|---|---|
| 5,00 — 4,96 | 100 | 4,30 — 4,26 | 86 | 3,60 — 3,56 | 72 |
| 4,95 — 4,91 | 99 | 4,25 — 4,21 | 85 | 3,55 — 3,51 | 71 |
| 4,90 — 4,86 | 98 | 4,20 — 4,16 | 84 | 3,50 — 3,46 | 70 |
| 4,85 — 4,81 | 97 | 4,15 — 4,11 | 83 | 3,45 — 3,41 | 69 |
| 4,80 — 4,76 | 96 | 4,10 — 4,06 | 82 | 3,40 — 3,36 | 68 |
| 4,75 — 4,71 | 95 | 4,05 — 4,01 | 81 | 3,35 — 3,31 | 67 |
| 4,70 — 4,66 | 94 | 4,00 — 3,96 | 80 | 3,30 — 3,26 | 66 |
| 4,65 — 4,61 | 93 | 3,95 — 3,91 | 79 | 3,25 — 3,21 | 65 |
| 4,60 — 4,56 | 92 | 3,90 — 3,86 | 78 | 3,20 — 3,16 | 64 |
| 4,55 — 4,51 | 91 | 3,85 — 3,81 | 77 | 3,15 — 3,11 | 63 |
| 4,50 — 4,46 | 90 | 3,80 — 3,76 | 76 | 3,10 — 3,06 | 62 |
| 4,45 — 4,41 | 89 | 3,75 — 3,71 | 75 | 3,05 — 3,01 | 61 |
| 4,40 — 4,36 | 88 | 3,70 — 3,66 | 74 | 3,00 | 60 |
| 4,35 — 4,31 | 87 | 3,65 — 3,61 | 73 | **3,0 dan kam** | **60 dan kam** |

**ESLATMA:** Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo‘yilgan bahodan norozi bo‘lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e’lon qilingan kundan e’tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar. Talaba tomonidan berilgan appelyatsiya Appelyatsiya komissiyasi tomonidan 1 kun ichida ko‘rib chiqila hamda DAK raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.



CamScanner yordamida skanerlangan

## Adabiyotlar ro'yxati

### 1. Asosiy adabiyotlar

1. Adizova I. O'zbek mumtoz adbiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). O'quv qo'llanma - Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbek Milliy Universiteti, T., 2006.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Toshkent. 1987-2003.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006;
4. Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. Ilmiy nashr. Toshkent, 2000.
5. Sodiqov Q. Muhokamatu-l-lug'atayn. Qosimjon Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. Toshkent, Akademnashr. 2017.
6. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Toshkent. Tamaddun. 2018.
7. Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo'jayev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. Ilmiy nashr. Toshkent, 2000.
8. Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. O'quv qo'llanma. –T., 2008.
9. Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva T. Fors tili. – T., 2006.
10. Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva T. Fors tili. – T., 2009.
11. Yusupova D. O'zbek mumtoz adabiyoti. (Alisher Navoiy davri). Qo'llanma. Toshkent, Akademnashr. 2013.

### 2. Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. – T.: "O'zbekiston", 2020. - 456 b.
2. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: "O'zbekiston", 2020. - 508 b.
3. Mirziyoev Sh. Ot natsionalьnogo vozrojdeniya - k natsionalьnomu progressu. – T. : "Uzbekiston", 2020. - 392 s.
4. Mirziyoev Sh. Uverenno prodoljim putь natsionalьnogo razvitiya na novom etape. – T.: "Ўzbekiston", 2020. - 368 s.
5. Mirziyoyev Sh. Yangi Uzbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T. : "O'qituvchi", 2021. - 184 b.
6. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi.– T.: "O'zbekiston", 2021. - 464 b.
7. Sodiqov Q. Ko'k turk bitiglari: matn va uning tarixiy talqini. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2004.
8. Sodiqov Q. Qadimgi turk falsafasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2008.
9. Tuxliev B. Voprosы poetiki "Kutadgu bilig" Yusufa Xas Xadjiba. Ilmiy nashr. Tashkent, 2004.



CamScanner yordamida skanerlangan

10. Amanjolov A.S. Istoriya i teoriya drevnetyurkskogo pisma. Ilmiy nashr. Almati, 2003.

11. Stebleva I.V. Tyurkskaya poetika. Etapi razvitiya VIII-XX vv. Ilmiy nashr. Moskva, 2012.

12. To'xliyev B., To'xliyev D. Navoiyshunoslik. –T.: Bayoz. 2017.

13. To'xliyev B. Ashurova G. Ta'lim bosqichlarida Navoiy ijodini o'rganish. – T.: Bayoz. 2017.

14. Abduqodirov A. Amir Alisher Navoiy. –T.: Bayoz. 2020.

15. Abusamatov M.Sh. Fors tili. – T., 2007.

16. Xodiyeva N. Fors tilidan mashqlar to'plami. – T., 2010.

17. Ovчinnikova I.K., Ivanov V.B. Uчebnik persidskogo yazыka. – M., 2002.

18. Rubinчik Yu.A. Grammatika sovremennogo persidskogo literaturnogo yazыka. – M., 2001.

### 3. Internet saytlari:

1. www.turfanforschung.com
2. www.ziyonet.uz;
3. www.bilim.uz.
4. www.tonyukuk.com



CamScanner yordamida skanerlangan